



№2(2) 2023

AYNITY VORISLARI

XALQARO ELEKTRON JURNAL
INTERNATIONAL ELECTRONIC JOURNAL



ISSN
E-ISSN

“AYNIY VORISLARI”

xalqaro elektron jurnal

«НАСЛЕДНИКИ АЙНИ»

международный электронный
журнал

“AYNIY’S SUCCESSORS”

international electronic journal

№2(2) 2023

BOSH MUHARRIR

OBIDJON XAMIDOV,

iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (O‘zbekiston)

BOSH MUHARRIR O‘RINBOSARI

DILRABO QUVVATOVA,

filologiya fanlari doktori (DSc), professor (O‘zbekiston)

MAS’UL KOTIB

NAFOSAT O‘ROQOVA,

filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) (O‘zbekiston)

TAHRIR HAY’ATI:

DARMONOY O‘RAYEVA,

filologiya fanlari doktori, professor (O‘zbekiston)

JUMAQUL HAMROH,

filologiya fanlari doktori, professor (O‘zbekiston)

NURBOY JABBOROV,

filologiya fanlari doktori, professor (O‘zbekiston)

NURALI NUROV,

filologiya fanlari doktori, professor (Tojikiston)

SHAVKAT HASANOV,

filologiya fanlari doktori, professor (O‘zbekiston)

SHAMSIDDIN SOLIHOV,

filologiya fanlari doktori, professor (Tojikiston)

NURETTIN DEMIR,

Pr. Dok. (Turkia)

NAFAS SHODMONOV,

filologiya fanlari doktori, professor (O‘zbekiston)

ALFIYA YUSUPOVA,

filologiya fanlari doktori (DSc), professor (Rossiya)

SHOHIDA SHAHOBIDDINOVA,

filologiya fanlari doktori, professor (O‘zbekiston)

G‘AYRAT MURODOV,

filologiya fanlari doktori (DSc), professor (O‘zbekiston)

SHOIRA AXMEDOVA,

filologiya fanlari doktori, professor (O‘zbekiston)

MEHRINISO ABUZALOVA,

filologiya fanlari doktori (DSc), professor (O‘zbekiston)

DILSHOD RAJABOV,

filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent (O‘zbekiston)

JAMOATCHILIK KENGASHI

Jamoatchilik kengashi raisi:

TO'LQIN RASULOV,

fizika-matematika fanlari doktori (DSc), professor (O'zbekiston)

Jamoatchilik kengashi raisi o'rinnbosari:

ERGASH QILICHEV,

filologiya fanlari nomzodi, professor (O'zbekiston)

Jamoatchilik kengashi:

IBODULLA MIRZAYEV,

filologiya fanlari doktori, professor (O'zbekiston)

MUSLIHIDDIN MUHIDDINOV,

filologiya fanlari doktori, professor (O'zbekiston)

MAHMAYUSUF IMOMZODA,

filologiya fanlari doktori, akademik (Tojikiston)

SHAVKAT HAYITOV,

filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent (O'zbekiston)

GULMUROD ZARIPOV,

texnika fanlari nomzodi, dotsent (O'zbekiston)

TAVAKKAL CHORIYEV,

filologiya fanlari nomzodi, professor (O'zbekiston)

BIBISH JO'RAYERVA,

filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent (O'zbekiston)

LAYLO SHARIPOVA,

filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent (O'zbekiston)

NAZORA BEKOVA,

filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent (O'zbekiston)

ATOULLO AXMEDOV,

filologiya fanlari nomzodi, dotsent (O'zbekiston)

GULI TOIROVA,

filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent (O'zbekiston)

LOLA NE'MATOVA,

filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent (O'zbekiston)

BASHORAT JAMILOVA,

filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent (O'zbekiston)

SUMAYRA HAVAZ,

PhD (Kanada)

NOZIMA XOLIQOVA,

filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) (O'zbekiston)

*Amonova Zilola Qodirovna,
Buxoro davlat universiteti dotsenti,
filologiya fanlari doktori
z.q.amonova@buxdu.uz*
*Umurova Nigina Raximovna,
Buxoro davlat universiteti
O'zbek tili va adabiyoti kafedrasi o'qituvchisi
n.r.umurova@buxdu.uz*

AHMAD YASSAVIY IJODIDA MUHAMMAD PAYG'AMBAR OBRAZI

Annotatsiya: Ushbu maqolada Ahmad Yassaviy ijodida Muhammad alayhissalom obrazining ifodalaniishi, “Hikmatlar”da mukammal axloq, komil inson xususiyatlari, ideal qahramon haqidagi baytlar tahlil qilindi. Shuningdek, Ahmad Yassaviyning har bir ishda Muhammad alayhissalomga ergashganliklari va tasavvuf yo`liga kirgan solik uchun ham payg`ambar ibrat, namuna bo`lishi lozimligi haqidagi she’rlar g`oyaviy-badiiy tahlilga tortildi. Ahmad Yassaviy ijodi tahlili davomida “Hikmatlar”ning manbalari, asosan, Qur’oni Karim va Hadislar ekanligi misollar orqali asoslab berildi.

Kalit so`zlar: hikmat, tasavvuf, shariat, tariqat, qur'on, hadis, solik, so`fiy, so`fiylik.

Аннотация: В данной статье проанализировано выражение образа Мухаммеда в произведениях Ахмада Яссави, в стихах о совершенной нравственности, совершенных человеческих качествах, идеальном герое в “Девони Хикмат”. Также были проанализированы стихи Ахмада Яссави о следовании пророку Мухаммаду алейхиссалам во всех произведениях и о том, что Пророк должен быть примером и образцом для тех, кто вступает на путь суфизма. В ходе анализа творчества Ахмада Яссави на примерах было доказано, что источниками “Девони Хикмат” являются преимущественно Священный Коран и хадисы.

Ключевые слова: мудрость, суфизм, шариат, секта, Коран, хадисы, солик, суфийизм.

Abstract: In this article, the expression of the image of Muhammad in the works of Ahmed Yassavi, verses about perfect morality, perfect human characteristics, ideal hero in “Devoni Hikmat” were analyzed. Also, Ahmed Yassavi's poems about following Muhammad alayhissalam in every work and that the Prophet should be an example and a model for those who entered the path of Sufism were analyzed. During the analysis of Ahmed Yassavi's work, it was proved through examples that the sources of “Devoni Hikmat” are mainly the Holy Qur'an and Hadiths.

Keywords: wisdom, sufism, sharia, sekta, Qur'an, hadith, solik, sufi.

Kirish. Ahmad Yassaviy - turkiy tasavvuf she'riyatining tamal toshini qo'ygan so'fiy shoir. Turkiy xalqlar ma'naviyatining yorqin yulduzi sifatida asrlar osha o'z merosi bilan xizmat qilib kelmoqda. Bu borada mashhur usmonli turk shoiri Yahyo Kamolning atoqli olim Muhammad Fuod Ko'prulizodaga aytgan fikrlari o'rinali sanaladi. U «Ahmad Yassaviy kimdir? Merosining sir-asrori nedur? Shuni bir chuqur o'rganing. Millatimizning asoslarini ana o'sha joyda topursiz!», - degan ekan. Ahmad Yassaviy adabiy merosida turkiy xalqlar turmush tarzi, tarbiyasi bilan bog'liq asosli mulohazalar berilgan. Ulug' so'fiy shoir ijodida islom va tasavvuf g'oyalari izchil yoritilgan. Shoir islom va tasavvuf obrazlari talqiniga ham katta e'tibor qaratadi. Masalan, Iso, Muso, Ayyub, Muhammad kabi islomiy obrazlar; Mansur Halloj, Ibrohim Adham, Boyazid Bistomiy kabi tasavvufiy timsollar turkiy she'riyatga Yassaviy tomonidan oilb kirilgan. Shu jihatdan ham Yassaviy turkiy tasavvuf she'riyatining asoschisi sifatida e'tirof etiladi.

Ma'lumki, tasavvuf ta'limoti mohiyati istilohlar bilan birligida, obrazlar orqali ham yoritiladi. Ayniqsa, tasavvuf shayxlarining nomlarini talmeh qilish bilan ularning g'oyalariiga ham ishora qilinadi. Ayni holatni Ahmad Yassaviy hikmatlarida ham ko'rish mumkin. Uning she'rlarida bir qator payg'ambarlar nomi zikr etiladi. Shular orasida Muhammad alayhissalom payg'ambar alohida mavqe egallaydi:

Ilhom indi Haq taolo rahmatidin,
Xojam sundi ushbu vahdat sharbatidin.
Bo'lduq emdi ul Muhammad ummatidin,
Qol ilmimiz holg'a badal bo'ldi, do'stlar [29]

Asosiy qism. Tasavvuf ta'limoti islom dini zamirida shakllanganligi barchamizga ma'lum. Shu bois so'fiylarning aksariyati shariat va tariqat talablarini bir-biri bilan bog'lab, o'zaro uyg'unlikda ifodalaydilar. Xuddi shunday jihat Ahmad Yassaviy ijodi uchun ham xarakterli sanaladi. So'fiylar nazdida ilhom, ya'ni haq ishqini va uning vasliga erishish borasidagi kuchli ishtiyoq hamma narsadan muhim. Shuning uchun ilhomning yetishi – bu Allohning inoyati va rahmati orqali yuzaga keluvchi ruhiy holatdir. Yassaviy ham bunga alohida urg'u beradi. Vahdat sharbatidan sunmoq-ichmoq deganda, tasavvufdagi tavhid maqomi nazarda tutiladi. Bu ilmi vahdat yoki ilmi tavhid deb yuritiladi. Vahdat – tavhid bu Alloh bilan birlik hosil qilishdir. Bayt mazmuniga e'tibor qaratsak, avvalo, so'fiylikka ilk qadam bu ilhom, ammo bu ham Allohning rahmati ekanligi ta'kidlangan. "Xojam sundi ushbu vahdat sharbatidin", - misrasida esa Alloh o'z rahmati ila vahdat sharbati, ya'ni oshiqning qalbi ishqu ilhom bilan to'ldirilganligiga urg'u bergen. Keyingi misralarda esa qol ilmi hol ilmiga badal

bo‘lganligi xususida fikr yuritilgan. Qol va hol ilmlari tasavvufda alohida mavqega ega bo‘lib, ular o‘zaro uzviy bog‘liq bo‘lish bilan birga, bir-birini taqozo ham etadi. Qol ilmi – bu zohiriyl ilmlar majmuyi. Ya’ni sezgi organlari orqali egallash, o‘qib o‘rganish mumkin bo‘lgan ilmdir. Hol esa murakkab ilm bo‘lib, so‘fiyning orifligi, qol ilmi takomillashib qalbi orqali his etiladigan holat sanaladi. Hol maqomini egallagan so‘fiy tasavvur va taxayyulda Alloh jamolini mushohada eta boshlaydi. Aynan hol maqomi vahdat-ul vujudga eltuvchi zinalardan biridir. Qolaversa, hol ilohiy rahmatning nuzul bo‘lishi hisoblanadi. Yana bir baytga diqqat qaratsak:

Uchmoh ichra o‘run bergay qayu jong‘a,
Kimki toat birla ishlab chiqsa tongg‘a.
Isrofilni suri kirsa qayu jong‘a,
Biz Muhammad ummatimiz, biling, do‘stlar [2; 30]

Ushbu bandda ham payg‘ambarimizning nomlari zikr etilgan bo‘lib, albatta, bundan yuksak g‘oyaviy-badiiy maqsad anglashiladi. Uchmoh – bu jannat so‘zining eski turkiy tildagi shaklidir. Misrada kimki tongga qadar toat bilan mashg‘ul bo‘lsa, unga jannatdan o‘rin berilishiga ishora qilingan. Ibodat va riyozat masalasi Yassaviy she’riyatining asosiy mazmunini tashkil etadi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Zero, Ahmad Yassaviy ijodi ibodat adabiyotining shakllanishida asos sanaladi.

So‘fiy shoir mazkur baytda muqarrab farishtalardan biri Isrofil alayhissalom nomini talmeh sifatida zikr etgan. Yassaviy hikmatlarida nafaqat ma’no rang-barangligi, balki obrazlar xilma-xilligi ham ko‘zga tashlanadi. Bu esa alohida mazmun-mohiyat kasb etadi. Muqaddas kitoblarda to‘rt asosiy farishtalar va ularning o‘zlariga xos bo‘lgan vazifalari haqidagi ma’lumotlar keltirilgan. Aynan, Isrofil farishtaga xoslangan vazifa bu qiyomat payti kelganda sur chalish sanaladi. Ushbu misraning mantiqiy davomi sifatida misra so‘ngida esa biz Muhammad alayhissalom ummatlari ekanligimiz alohida ta’kidlangan. Bunga sabab, qachonki Isrofil farishta birinchi marta sur chalganida, yer yuzidagi jamiki maxluqot bu dunyoni tark etadi, ikkinchi marta chalinganda esa barcha o‘liklarning tirilishi aytildi. Barcha insonlar tirilib mahshargohda yig‘ilganida birinchi bo‘lib Muhammad alayhissalomning ummatlari chaqiriladi, bu misra orqali ayni shu haqiqatga ishora qilinadi.

Ahmad Yassaviy ijodida zokir va zikr juda ko‘p bora tilga olingan masalalardan biridir. Ayniqsa, zokir timsoli alohida yuksak tasavvufiy ma’no yuklangan obrazlardan sanaladi. Quyidagi baytda zokir obrazining mohiyati yoritilgan:

Ondin so‘ngra Haq nurin zokirlarga sochorlar,
Maloiklar saf to‘lub, arra boshlar doimo.

Muhabbat sharobini qo‘lg‘a olib Muhammad,
Zokirlarg‘a sunubon, soqiy bo‘lur doimo. [2; 38]

Haq nuri bu hidoyat yo‘li ekanligi bir necha tasavvufiy manbalarda ta’kidlangan. Alloh o‘zining hidoyat nurlarini avvalo, zokirlarga sochadi. Zokir so‘zining istilohiy ma’nosи Allohnинг zikr qiluvchi, yod oluvchi, eslovchi degan ma’nolarni anglatadi. Hatto farishtalar ham saf tortib arra zikr qilishlari alohida ta’kidlangan bo‘lib, arra zikri Yassaviy tariqatiga xos zikr hisoblanib, jahriya zikrni anglatadi. Zikr va zokir obrazlaridan Ahmad Yassaviy o‘z hikmatlarida juda ko‘p o‘rinlarda foydalangan. Chunki tasavvufda zokirlik nafsni poklash va vahdatga erishishda katta ahamiyat kasb etadi. Zikr va zokirlik haqida bir qancha tasavvifiy asarlarda batafsil ma’lumotlar berilgan. Hatto, taniqli yozuvchi S.Siyoyevning “Ahmad Yassaviy” tarixiy-biografik asarida zikr xususida alohida bob ajratilgan bo‘lib, unda zikrning qanday jarayon ekanligi, zokirlik xususiyatlari yuqori pafosda yuksak badiiy mahorat bilan oolib berilganligini ham ko‘rish mumkin. Xususan, Ahmad Yassaviy: “Zikr – jonning rohati”, – deb ta’riflagan. Bundan tashqari buyuk so‘fiy zikrning turlarini ham alohida sanab o‘tgan. Zikr tariqat yo‘liga kirgan solik uchun kundalik vazifa bo‘lishi, qalban his etib hamisha Allohnи eslash kerakligi demakdir. Shundan so‘ng, zokirga Haq o‘z nurlarini sochishi yuqoridaagi baytda o‘z aksini topgan. Zokir uchun nur ul-hudo sochilibgina qolmay, maloiklar, ya’ni farishtalar ham saf bo‘lib turishadi, zokir qalbiga Rasuli Akramning o‘zлари ishqning sharobini – vahdat mayini quyishlari misralarda ko‘tarinki ehtiros bilan aytildi. Zikrning xosiyatlari va uning nechog‘lik inson kamoloti uchun ahamiyatliliqi haqida oyat, hadislarda ham alohida urg‘u berilgan: “...Allohnи zikr etish bilan qalblar orom olur”, -deb aytildi muqaddas kitob Qur‘oni Karimning Ra’d surasida. Bundan tashqari hadislarda ham zikr qiluvchi kishi va zikr qilmaydigan kishi xuddi tirik va o‘lik insonga o‘xshashi qiyoslangan (Muttafaqun alayh). Nafaqat tasavvuf yo‘liga kirgan solik, balki har bir kishi hamisha Allohnи yod etmog‘i lozimligi ko‘pgina manbalarda o‘z aksini topgan. Keyingi misralarda esa zikrning foydalari xususida fikrlar yanada ravshanlanib borib, Haq nuri, Muhammad alayhissalomning soqiy bo‘lib, oshiq qalbini ishq sharbati ila to‘ldirishi bu zokir uchun ulkan saodat ekanligi ta’kidlangan. Ahmad Yassaviy aksariyat hikmatlarida payg‘ambar obrazini nihoyatda yuksak ehtirom bilan tilga oladi va muhim g‘oya tashuvchi obraz sifatida tasvirlaydi: Davr davri Ahmad, xoyr ul-bashar Muhammad,

Dunyovu ding‘a sarmad, shar‘i bayon emasmu? [2; 44]

“Devoni Hikmat”da deyarli barcha she’rlarda Payg‘ambar nomi tilga olinadi. Sulton ul-orifin Rasulullohnи poklik timsoli, ibrat va namuna qilib ko‘rsatadi. Har bir ishda ergashmoq lozimligini hamisha ta’kidlaydi. Yuqoridaagi misralarda ham Muhammad alayhissalom yashagan davrlari eng yaxshi davr

ekanligi, butun bashariyat uchun xayr- ezgulik davri bo'lganligini e'tirof etadi. Bir qancha manbalarda ham Rasululloh yashab o'tgan davrlari saodat asri deb nomlangani bejizga emas. Insoniyatga xayr bo'lib kelgan Muhammad alayhissalom dunyo va dinga manfaatli, to qiyomat dasturil amal bo'ladigan, abadiy shariatni, go'zal yashashimiz uchun mukammal axloqni bizlarga qoldirdilar degan yuksak e'tirof misralarda o'z aksini topgan. Tariqatning avvali shariatdir. Solik uchun dastlabki yo'l shariat yo'li sanaladi. Tasavvufda shariatni mukammal o'rganib, so'ngra keyingi maqomlarga o'tiladi. Mana shu avvalgi yo'lni bizga bayon etgan Muhammad alayhissalomdir. Ahmad Yassaviy "Hikmatlar"ining tub mag'zida Allohga va Muhammad alayhissalomga bo'lgan yuksak muhabbatni ko'rар ekanmiz, bu ijod namunasi barcha insoniyatning qalbida ezgulikning bardavom va barqaror bo'lishida xizmat qiladi, deya olamiz.

Ahmad Yassaviy o'zining purma'no, haq yo'lga undovchi hikmatlarida payg'ambar obrazini alohida tasavvufiy mazmun kasb etish uchun kirkizibgina qolmay, qasida tariqasida ham baytlar bitdi. U o'z rasuli haqida shunday kuyladiki, bunday ehtiros, bunday jo'shqin pafos har qanday o'quvchining qalbini shavqqa to'ldiradi. Sarvari koinot, olamlarga rahmat Muhammad sollallohu alayhi vasallamni sevmay turib, u kishi haqlarida bilmay turib solik aslo muddaosiga yetolmasligi baytlar qa'riga yashiringan:

Haq taolo habibi, yo Mustafo Muhammad,
Dardliklarni tabibi, yo Mustafo Muhammad.
Izhor qildi Odamg'a, Odamdin to Xotamg'a,
Nuri to'ldi olamg'a, yo Mustafo Muhammad.
Mahbubi pok sirdon, matlubi shohi mardon,
Maxdumi kulli inson, yo Mustafo Muhammad.

Me'roj yo'lig'a oshqon, dek ulashqon,

Ummat uchun talashqon, yo Mustafo Muhammad. [1; 12]

Ushbu baytlar Ahmad Yassaviyning Muhammad alayhissalomga cheksiz muhabbatini ifoda etibgina qolmay, Islom olamida buyuk hodisa sanalgan meroj xususida ham to'xtab o'tilgan. Ma'lumki, meroj hodisasi haqida juda ko'p manbalarda ma'lumotlar keltirilgan. Me'roj hodisasi payg'ambarimizning yetti qavat osmondan Buroq nomli ot bilan ko'tarilib, Allohnинг huzuriga borishlari, Alloh va rasuli o'rtasidagi suhbat haqidadir. Ahmad Yassaviy ijodida ilgari surilgan umumiy konsepsiyada payg'ambar Muhammad alayhissalomni Haqning chin oshig'i sifatida tasvirlangan. Aytish joizki, N.Komilovning "Tasavvuf" kitobida: "Muhammad alayhissalom butun vujudlari bilan Alloh oshig'i edilar, ul zotning ko'kka ko'tarilishlari, Me'roj tuni Parvardigor bilan muloqotlari, faqrning nurli haykalini ko'rishlari, yerga tushib g'arib va faqirlarning boshini silashlari oshiqlik boisidir, deydi Yassaviy, - deb ta'kidlanadi. [7; 341]

Me'roj tuni butun islomiyat olami uchun katta ahamiyatli ilohiy hodisa edi.

Hazrat Muhammad alayhissalom Ahmad Yassaviy uchun ideal, buyuk kamolot, mukammal va go‘zal axloq, ezgu fazilatlar, xayr-ehson, yuksak sadoqat, muhabbat, e’tiqod va iymonni mujassam etolgan mukarram zotdir va buni aksariyat hikmatlardagi jo‘shqin e’tiroflar dalillaydi:

Yetim qoldi otodin ham mehribon onodin,
Taqdir bo‘ldi Xudodin, yo Mustafo Muhammad.
Yetim boshin siladi, teva bo‘ldi Muhammad,
Jonni jong‘a uladi, yo Mustafo Muhammad.
Yetti yoshar yosh o‘g‘lon, dur qadrini bildi,
Olti yong‘oqqa sotti, yo Mustafo Muhammad.
Teva bo‘ldi «af» dedi, ummatini tiladi,
Jabroil yetib keldi, yo Mustafo Muhammad.
Bu dunyoni suymadi, farcha nong‘a to‘ymadi,
Haq qullug‘in qo‘ymadi, yo Mustafo Muhammad. [1; 16]

Ushbu misralarda payg‘ambarning hayot tarzlari, yashab o‘tgan yo‘llari, go‘zal axloqlari, yuksak, beg‘ubor, samimiyl qalblari, nabiylilik faoliyatidagi hodisalar, meroj voqeasi o‘z ifodasini topgan. Shu o‘rinda so‘fiy-shoir payg‘ambarimizning yoshlikda ota-onalaridan yetim qolganliklari bilan birga, hamisha yetim va g‘ariblarga shafqatl bo‘lganliklarini tasvirlab, buyuk bir voqeaga ham dalolat qiladi. Ya’ni “Yetim boshin siladi, teva bo‘ldi Muhammad” (alayhissalom) misrasiga alohida to‘xtalib o‘tish zarurati bor. Manbalarda qayd qilinishicha, kunlarning birida Janobi payg‘ambar hayat namozini o‘qib chiqayotganlarida ko‘chani chekkasida yerga qarab yig‘lab o‘tirgan 4 yoshlardagi yetim bolani ko‘rdilar. Boshqa bolalar tuyalarga minib, ota-onalari qo‘llariga shirinlik tutgan kunda haligi bola g‘amgin edi. Payg‘ambar s.a.v. shu bolani oldiga bordilar va so‘radilar:

- Nima uchun yig‘laysan, ey bola?
- Men yetimman yo Rasululloh. Mening otam ham, onam ham, aka-opalarim ham yo‘q.

Janob payg‘ambar s.a.v. bag‘irlariga bosib, peshonasini silab:

- Yoshlikda men ham yetimlikda o‘sdim, katta bo‘lgach qavmim meni sig‘dirmay boshqa shaharga hijrat qildim, - dedilar. Yana boladan so‘radilar:
 - Sen ota-onalik, aka-ukalik bo‘lishni xohlaysanmi?
 - Albatta xohlayman. Men ham boshqa bolalarga o‘xshab o‘ynashni xohlayman.

Rasulluloh bolani qo‘llaridan ushlab, uylariga olib bordilar va bolaga dedilar:

- Men sening otang bo‘lay. Oisha onang bo‘lsin. Ali sening akang-u, Hasan-Husanlar ukang bo‘lsin. Fotima sening opang bo‘lsin.

Bola xursand bo‘ldi. Yuvintirib, biroz narsa berib, qornilarini to‘ydirgandan keyin bola aytdi:

– Mening ham bolalarga o‘xshab ko‘chaga chiqib o‘ynagim kelyapti.

Rasululloh bolani qo‘llaridan ushlab ko‘chaga o‘ynatgani olib chiqdilar. Boshqa bolalarni ko‘rgan haligi norasida:

– Ey, otajon. Anavu bolalarni qarang, ularni ota-onalari tuyaga mindirib qo‘yibdilar. Mening ham ota-onam bo‘lganida tuyaga mindirardilar, – dedi.

Rasululloh muborak qo‘llarini yerga qo‘yib, tizzalari bilan yurib, yetim xursand bo‘lsin deb, Madina ko‘chalarida yelkalariga mindirib yurdilar. Bola yana atrofdagi bolachalarga qarab:

– Yo Rasululloh, anavi bolalarning tuyalarining og‘zida jilovi bor ekan. Mening tuyamning jilovi yo‘q-ku! – dedi. Rasululloh muborak sallalarining peshini olib, og‘zilaridan o‘tkazib, yelakalaridan oshirib, bolaga berdilar. U bo‘lsa goh-gohida oyog‘ini silkitib qo‘yardi, jilovni tortardi. Ba’zi tuyalarning ovoz berib «aff-aff» deydigan odati bor edi. Hali bola Payg‘ambar s.a.v.ga:

– Ey, otajon, bularning tuyasini qarang, ovoz berib, «aff-aff» deydi. Nega meniki afflamaydi, – dedi. Shundan so‘ng, payg‘ambarimiz bolani mindirgancha ikki marta “aff, aff” dedilar.

Shunda Jabroil amin a.s. kelib:

– Yo, habibulloh! Alloh sizdan rozi bo‘ldi. Yetimni xursand qildingiz. Ey, Muhammad s.a.v., uchinchi afvni aytmang. Arshi a’lo larzaga tushdi. Uchinchi afvni qiyomatga qoldiring, – deb aytdi farishta [6; 58]. Yassaviy ana shu voqeaga ishora qilib, talmeh san’atidan o‘rinli foydalangan.

Komil axloq sohibi mana shunday rahmdil, shafqatli inson bo‘lganlar, tasavvuf yo‘liga kirgan solik ham shunday fazilatlarga ega bo‘lishi kerakligi hikmatlarda badiiy ifodasini topadi. Ko‘rib turganimizdek, Ahmad Yassaviy mukammal va mukarram axloq sohibi bilan bog‘liq mana shunday ibratli hodisalarni o‘z hikmatlariga singdirib, o‘zi ham yetim va faqirlarga hamisha homiylik qilgan, mehr-shafqat ko‘rsatgan. Ushbu misralar fikrimizning yaqqol dalilidir:

G‘arib, faqir, yetimlarni Rasul so‘rdi,
O‘shal tuni me’roj chiqib Haqni ko‘rdi,
Qaytib tushib, g‘arib faqir holin so‘rdi,
G‘ariblarning izin izlab tushdim mano! [7; 342]

Ahmad Yassaviy hayoti davomida har bir ishda payg‘ambarga ergashganligini ko‘pgina hikmatlarning mazmunidan anglasak bo‘ladi. Yuqoridagi hikmatda ham “G‘ariblarning izin izlab tushdim mano”, deyish orqali yassaviy o‘zini hazrati rasulullohning etimparvar, faqir holidan xabardor bo‘lish bilan bog‘liq solih amallarining izchil davomchisi sifatida qayd etadi. Zero, Rasululloh (s.a.v) barcha musulmonlar uchun o‘rnak edilar.

Ahmad Yassaviy Muhammad (s.a.v) haqida hikmatlarda yozar ekan, ul hazratning boshqa payg‘ambarlardan alohida ajralib turadigan, ya’ni ustunlik jihatlariga ham urg‘u beradi:

Tilamadi otosin ham mehribon onosin,
Qildi ummat duosin, yo Mustafo Muhammad.
Tangri(si)g‘a talabgor, kecha-kunduz yig‘lar zor,
Bo‘ldi ummatga muxtor, yo Mustafo Muhammad. [2; 69]

Mazkur misralarda payg‘ambarimizning ummatlari uchun mehribon, ularni duo qiluvchi, to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatuvchi ulug‘ zot ekanligini ta’kidlaydi. Hazrat Muhammad alayhissalom umrlari davomida ummatim deb yondilar, ummat gunohini tiladilar, faqirlarga, miskin bechoralarga hamisha yordam, ehson qildilar, ibodatni mukammal ado etdilar, Allohning chin oshig‘i sifatida tunlarni namoz-u niyoza o‘tkazdilar. Qalblar tabibi, anbiyolar sarvari, Rasulullohni har joyda Ahmad Yassaviy “Haq Mustafo” unvoni ila tilga oladi. “Bu bilan, birinchidan, Muhammad sollallohu alayhi vasallam payg‘ambari barhaq ekanini ta’kidlash bo‘lsa, ikkinchidan Haq vasliga yetish, Alloh amrini ado etish, payg‘ambar yo‘lini tutish, sunnatiga sadoqat ko‘rsatish orqali borishini aytishdir”, -deya ta’kidlaydi tasavvufshunos Najmuddin Komilov. [7; 312]

Xulosa. Ahmad Yassaviy hikmatlarida ideal inson, komil shaxs deganda aynan Muhammad alayhissalomni namuna qilib ko‘rsatganligini bir qancha hikmatlar tahlilidan anglash mumkin. Tasavvuf yo‘lini tutgan solik, avvalo, shariatni o‘rganib, so‘ng keyingi bosqichlarga o‘tishi lozim, buning uchun dastlab payg‘ambar sunnatini qunt bilan egallashi, u kishiga ergashmoq kerakligi, eng mukammal axloq payg‘ambar axloqi ekanligi Ahmad Yassaviy she’rlarida yuksak badiiy mahorat bilan ifodalanganini ko‘rish mumkin. So‘fiy ijodkor hikmatlarining markazida aynan Muhammad alayhissalom obrazni turishi yuqoridaagi namunalarning tahlilidan yaqqol namoyondir. Ahmad Yassaviy o‘z she’rlarida hadislar orqali Muhammad alayhissalomning go‘zal fazilatlarini muhabbat va jo‘shqinlik bilan ta’riflar ekan, nafaqat tasavvuf yo‘lidagi solik, so‘fiylar, balki barcha insoniyatga namuna sifatida ko‘rsatib bergen. Yassaviy ijodida ezgu fazilatlarning, oljanib xususiyatlarning hikmatlar qa‘riga singdirilgani barchani kamolotga yetaklashda muhim ahamiyat kasb etuvchi adabiy xazinadir.

ADABIYOTLAR:

1. Аҳмад Яссавий. Девони Ҳикмат. –Тошкент: Мовароуннахр, 2004.
2. Ahmad Yassaviy Devoni hikmat (yangi topilgan hikmatlar). www.ziyouz.com kutubxonasi.
3. Аҳмад Яссавий. Ҳикматлар. –Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1991.

4. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. Тўрт томлик. 3-том. –Тошкент: Фан, 1984.
5. Вохидов Р., Махмудов М. Иймон-қалб гавҳари. –Тошкент: Маънавият, 1998.
6. Imam Buxoriy. Al-adab al-mufrad. www.ziyouz.comkutubxonasi
7. Комилов Н. Тасаввуф. Биринчи китоб. –Тошкент: Абдулла Кодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 1994.
8. Комилов Н. Тасаввуф. Иккинчи китоб. Тавхид асрори. –Тошкент: Faafur Fулом номидаги Адабиёт ва санъат ҳамда “Ўзбекистон” нашриётлари, 1999.
9. Комилов Н. Тафаккур карвонлари. –Тошкент: Маънавият, 1999
10. Маҳмуд Асьад Жўшон. Зикруллоҳнинг фазилатлари. –Тошкент: Сано-стандарт, 2019.
11. Сиёев Саъдулла. Яссавийнинг сўнгти сафари. –Тошкент: Чўлпон, 1994.
12. Ҳаққул И. Тасаввуф ва шеърият. – Тошкент: АСН, 1991.
13. Ҳаққул И. Ирфон ва идрок. – Тошкент: Маънавият, 1998.
14. Ҳаққул И. Тасаввуф сабоклари. – Бухоро, 2000.
15. Ҳаққул И. // Хакикат йўлин тутай десанг...// Тасаввуф ва шеърият. – Тошкент: Faafur Fулом номидаги нашриёт-матбаа бирлашмаси. 1991.
16. Ҳаққул И. Такдир ва тафаккур. –Тошкент: Шарқ, 2007.
17. Ҳомиджон Ҳомидий. Тасаввуф алломалари. –Тошкент: Шарқ, 2009.
18. Qur'oni Karim. Alouddin Mansur tarjimasi. www.ziyouz.comkutubxonasi